

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



**«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATION YONDASHUVLAR»**

MAZHUSIBA BAKHODIROV H. MURAKABEV ALOMIDAN



**«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»**

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ



**“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”**

PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE



ANDIJON-2024. 10-IYUN

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN

«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”
PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE

2024-YIL 10-IYUN

ANDIJON – 2024

Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi "2024-yilga mo'ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 16-sonli buyrug'i, shuningdek, mamlakat ilm-fani nufuzini yanada oshirish va xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik ko'larni kengaytirishga qaratilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpozium, kongress, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlarni yuqori ilmiy va tashkiliy amaliy darajada samarali o'tkazilishini ta'minlash maqsadida Andijon davlat chet tillari institutida "Ingliz tili nazariy aspektlari", "Ingliz tili va adabiyoti" hamda "Ingliz tili amaliyoti" kafedralari tomonidan "Zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlari va chet tillarini o'qitishda innovatsion yondashuvlar" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o'tkazildi.

Mas'ul muharrir(lar):

f.f.n., prof. S.O.Solijonov

Tahrir hay'ati:

f.f.d.prof. D.A.Rustamov
f.f.d.prof. M.I.Umarxo'djayev
PhD. dots. M.A.Qurbanov
f.f.d.prof. G'.M.Xoshimov
f.f.d.prof. V.A.Vositov
PhD. dots. M.G'.Xoshimov
p.f.n. prof. Sh.S.Alimov
PhD. G.M.Ibragimova
PhD. Q.Umrzakov
kafedra o'qituvchisi N.Xamidov
kafedra o'qituvchisi Z.No'monova

Tahrir nashriyoti bo'limi muharriri:

A.A.Xomidov

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallariga oid mazkur to'plam, tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari va chet tillarini o'qitishdagi innovatsion yondashuvlar hamda ulardagi dolzarb masalalarga bag'ishlanligi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur to'plamdan respublika va xorijiy oliy ta'lif muassasalarida hamda ilmiy-tadqiqot markazlarida faoliyat olib borayotgan olimlar, professor-o'qituvchilar, doktorantlar, magistrler va iqtidorli talabalarning ilmiy maqolalari joy olgan.

To'plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlar sanasining to'g'rilingiga mualliflarning o'zları mas'uldirilar.

Andijon davlat chet tillari instituti, 2024-yil

In the context of modern linguistic trends, innovative approaches to teaching foreign languages are necessary to meet the needs of diverse learners. Integrating technology in language education, such as language learning apps, online courses, and virtual exchanges, has become increasingly important. These tools offer learners access to authentic language use and cultural experiences, enhancing their language proficiency and intercultural competence.

Furthermore, pedagogical approaches that emphasize communicative competence, task-based learning, and learner autonomy are crucial. These approaches align with the realities of global communication, where language learners need to use their skills in dynamic and varied contexts.

References

1. Blommaert, J. (2010). "The Sociolinguistics of Globalization". Cambridge University Press.
2. Canagarajah, S. (2006). Ethnographic Methods in Language Policy. In T. Ricento (Ed.), "An Introduction to Language Policy: Theory and Method" (pp. 153-169). Blackwell Publishing.
3. Crystal, D. (2006). "Language and the Internet". Cambridge University Press.
4. Crystal, D. (2011). Internet Linguistics: A Student Guide. Routledge.
5. Deumert, A. (2014). "Sociolinguistics and Mobile Communication". Edinburgh University Press.
6. García, O., & Li, W. (2014). "Translanguaging: Language, Bilingualism and Education". Palgrave Macmillan.
7. Heller, M. (2007). "Bilingualism: A Social Approach". Palgrave Macmillan.
8. Kress, G. (2010). "Multimodality: A Social Semiotic Approach to Contemporary Communication". Routledge.
9. Pennycook, A. (2010). "Language as a Local Practice". Routledge.
10. Spolsky, B. (2004). "Language Policy". Cambridge University Press.
11. Warschauer, M., & Matuchniak, T. (2010). New Technology and Digital Worlds: Analyzing Evidence of Equity in Access, Use, and Outcomes. "Review of Research in Education", p. 34, 179-225.

DUNYO KONSEPTUAL MANZARASIDA VOQELIKNI AKS ETISHI

Nasirova Muxayyo Kimsanova

Tayanch doktorant

Andijon davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu ishda kontseptosfera va dunyoning kognitiv manzarasi bir-biri bilan chambarchas bog'liqligi va "Dunyo manzarasi" tushunchasi ostida eng umumiy shaklda jamoat ongida shakllangan voqelik haqidagi tartiblangan bilimlar to'plami hamda olimlar tomonidan tahlili berilgan.

Kalit so'zlar: kontseptual, aksiologiya, stereotip, kognitiv matritsa, voqelik

Аннотация: В данной работе концептосфера и когнитивная картина мира тесно связаны, а под понятием «Мировоззрение» понимается

организованная совокупность знаний о действительности, сформированная в общественном сознании в наиболее общей форме, а также анализ учеными.

Ключевые слова: концептуальный, аксиология, стереотип, когнитивная матрица, реальность

Abstract: In this work, the conceptosphere and the cognitive view of the world are closely related, and under the concept of "World View" the organized set of knowledge about the reality formed in the public mind in the most general form, as well as the analysis by scientists, is given.

Key words: conceptual, axiology, stereotype, cognitive matrix, reality
Dunyoning lingvistik manzarasi bilan bog'liq holda dunyoning kognitiv manzarasining asosini tashkil etuvchi kontseptosferani har tomonlama tavsiflash amalga oshirilishida yirik rus va xorijiy olimlar Yu.D.Apresyan, A.N.Baranov, I.M.Kobozeva, V.V.Petrova, V.N.Pereverzev, D.S.Lixachev, Z.D.Popova, I.A.Sternin, Ch.Fillmor, R.Shenk, J.Serl, J.Barvays, J.Periva boshqalarning xizmati beqiyosdir.

Mentalitet xalqning psixologik hayotining o'ziga xos usuli sifatida ma'lum bir jamiyatda mavjud bo'lgan bilim va e'tiqodga asoslangan qarash, baho, me'yor va munosabatlar tizimi orqali namoyon bo'ladi, ular qadriyatlar ierarxiyasi va e'tiqodlarni belgilaydi.

Mentalitet dunyoning kontseptual manzarasining ma'lum bir qismi; agar biz dunyoning individual yoki guruhli kontseptual manzaralari haqida gapiradigan bo'lsak, mentalitet dunyoning ushbu kontseptual manzarasining etno-madaniy tarkibiy qismidir. Shu ma'noda tushunilgan mentalitet odamlarning fikrashi, kognitiv faoliyati, aksiologiyasi, shuningdek, jismoniy va og'zaki xattiharakatlarida uchraydigan kognitiv-psixologik haqiqat sifatida namoyon bo'ladi.

"Dunyoning kontseptual manzarasi" va "mentalitet" tushunchalarini ajratish ularning doimiy o'zaro ta'siri va boyitilishini istisno etmaydi, chunki ularning kesishgan va hatto bir-biriga mos keladigan joylar mavjud. "Dunyoning milliy kontseptual manzarasi" va "mentalitet" tushunchalari o'rtasida chegara chizish o'zini oqlamaydi, chunki bu ikkala atama ham bir xil mazmunga ega va ma'lum bir millat vakillari uchun umumiyl bo'lgan dunyoni milliy – o'ziga xos idrok etishni anglatadi.

Nemis tilshunosi Vilhelm fon Gumboldt "O vnutrenney forme yazыка" ("Tilning ichki shakli to'g'risida") asarida "dunyoning lingvistik manzarasi" tushunchasi rivojlanishining asosiy tarixiy va falsafiy jihatlarini ko'rsatib bergan. Dunyoning lingvistik manzarasi nazariyasini nemis olimi Leo Vaysgerber o'z asarlarida Gumboldt tadqiqotlariga tayanib yaratgan. Shuningdek, u fanga birinchi marta "dunyoning lingvistik manzarasi" tushunchasini kiritgan.

"Dunyo manzarasi" tushunchasi ostida eng umumiy shaklda jamoat (shuningdek, guruh, individual) ongida shakllangan voqelik haqidagi tartiblangan bilimlar to'plami tushuniladi.

Dunyo manzarasini bevosita va bilvosita farqlash juda muhimdir. Dunyoning bevosita tasviri – bu atrofdagi voqelikni anglash orqali bevosita bilish natijasida olingan manzara. Bunda idrok etish hislar yordamida ham, odamda mavjud bo'lgan mavhum fikrlash yordamida ham amalga oshiriladi. Ammo har

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

qanday holatda ham dunyoning bu manzarasi ongda “vositachilar”ga ega emas va dunyoni bevosita idrok etish va uni tushunish natijasida shakllanadi.

Dunyoning bevosita tasviri dunyoqarash bilan chambarchas bog'liq, ammo dunyoqarashdan farq qiladi, chunki u inson bilimlarini ifodalaydi, dunyoqarash esa ko'proq dunyoni bilish usullari tizimiga ishora qiladi. Dunyoqarash bilish usulini belgilaydi va dunyo manzarasi esa bilish natijasidir.

Dunyoning kognitiv manzarasi deganda inson yoki umuman, millatning kognitiv ongi tomonidan shakllangan voqelikning mental (aqliy) qiyofasi tushuniladi. Shuningdek, u voqelikni his-tuyg'ular orqali to'g'ridan-to'g'ri aks ettirish natijasidir. Dunyoning kognitiv manzarasi xalqning kontseptosferasini tashkil etuvchi tushunchalar shaklida mavjud bo'ladi. Dunyoning lingvistik manzarasi tilning kumulyativ semantik makonini tashkil etuvchi lingvistik belgilari shaklida namoyon bo'ladi.

Dunyoning kognitiv manzarasi madaniyat tomonidan o'rnatilgan kontseptosfera va ong stereotiplari to'plamidir. Shaxsning ongidagi dunyoning kognitiv manzarasi tizimli bo'lib, shaxs tomonidan atrofdagi dunyoni idrok etishga ta'sir qiladi. Jumladan, u borliq elementlarining tasnifini; borliqni tahlil qilish usullarini (voqeja va hodisalarining sabablarini tushuntiradi, voqeja va hodisalarining rivojlanishini, hodisalarining oqibatlarini ilgari suradi, shaxsning hissiy va ratsional tajribasini ongda, xotirada saqlashni) tashkil qiladi.

Dunyoning bevosita tasviri voqelik haqidagi mazmunli, kontseptual bilimlarni ham, voqelikning ayrim hodisalarini tushunish va talqin qilishni belgilaydigan mental stereotiplar to'plamini o'z ichiga oladi. Dunyoning bunday manzarasini kognitiv deb atash ma'qul, chunki u voqelikning kognitsiya (idrok etish) natijasidir. U kognitiv ong faoliyati natijasida harakat qiladi va tartibli bilimlar to'plamiga, ya'ni kontseptosferaga asoslanadi.

N.M.Lebedeva shunday yozadi: "Shaxsiy madaniyatimiz bizga dunyoni tushunish uchun "dunyoning manzarasi" deb ataladigan kognitiv matritsa (qolip) ni o'rnatadi" [1].

Dunyoning milliy kognitiv manzarasi – bu xalqning alohida vakillarining umumiy, barqaror, dunyoda takrorlanadigan tasvirlaridir. Demak, dunyoning milliy manzarasi, bir tomonidan, o'ziga xos mavhumlik, ikkinchi tomonidan, odamlarning aqliy, kognitiv faoliyatida, ularning xatti-harakatlarida jismoniy va verbal kognitiv-psixologik voqelikdir. Dunyoning milliy manzarasi stereotipik vaziyatlarda odamlarning xatti-harakatlarining bir xilligida, ularning borliq haqidagi umumiy g'oyalarda, umumiy fikrlarda, maqol va matal, aforizmlarda uchraydi.

Dunyo manzarasi odamlar psixikasida rivojlangan jamoaviy va individual jihatlarga ega. Inson psixikasida voqelikning aks etishi bilan bog'liq bo'lgan hamma narsa kognitiv dunyo deb ataladi. Madaniyatning kognitiv dunyosi va shaxsning kognitiv dunyosi mavjud. Bu dunyoning mazmuni kontseptlarga bo'lingan dunyoning jamoaviy va individual manzarasidir.

Dunyo manzarasini shakllantirishning asosini insonning kognitiv faoliyati tashkil etadi. Bunda nafaqat bilish jarayoni, balki uning natijasi ham ahamiyatlidir. Bundan kelib chiqadiki, inson dunyoni manzara sifatida qabul qiladi.

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

Dunyoning lingvistik va kognitiv manzarasi orqali kontseptosferaning mazmuni – kontseptlardan iborat bilim sohasiga “yo'l ochiladi”.

“Dunyo manzarasi” tushunchasi bugungi kunda gumanitar fanlarning turli sohalarida juda keng qo'llanilmoqda, chunki u inson mavjudligini tavsiflovchi asosiy tushunchalardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, kontseptosfera va dunyoning kognitiv manzarasi bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Dunyoning kognitiv manzarasiga shaxsning atrofimizdagi dunyo haqidagi tasavvurlari va g'oyalari, kontseptosferaga esa jamiyatda shakllanadigan g'oyalalar va falsafiy nazariyalar ham kiradi. Shunday qilib, kontseptosfera dunyoning kognitiv tasviriga ta'sir qiladi, chunki uning asosidagi g'oyalarni shakllantiradi. O'z navbatida, dunyoning kognitiv manzarasi insonga kontseptosferadagi ma'lumotlarni idrok etish va talqin qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Lebedeva N.M. Etnopsixologiya: uchebnik i praktikum dlya yavuzov / N.M. Lebedeva.–Moskva: Izdatelstvo Yurayt, 2023. – 491 s. – S.47.

**YEVROPA VA ISLOM DUNYOSI XALQ TABOBATIDA GUMORAL
NAZARIYA, UNDAGI ATAMALAR VA ULARNING
LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI**

No'monov Muhiddin

*Andijon davlat chet tillari instituti
Lingvistika fakulteti 2-bosqich magistranti*

Annotatsiya: Gumoral nazariya qariyb ikki ming yil davomida ham Islom dunyosi tabobati, ham Yevropa tabobatining asosiy yo'naliishi bo'lib deyarli barcha tibbiy amaliyotlarning asosi bo'lib kelgan. Shundan kelib chiqib, ushbu maqola tibbiyotning til va madaniy jihatlariga e'tibor qaratadi, hamda Sharq va Yevropa xalq tabobatidagi gumoral nazariyaning qiyosiy lingvokulturologik tahlilini muhokama qiladi. Qadimgi Yunonistondan kelib chiqqan gumoral nazariya tanani to'rtta unsur: qon, balg'am, safro va to'qima suyuqligi boshqaradi va bu unsurlar orasidagi muvozanatning buzilishi kasallikka olib keladi, deb ta'kidlaydi. Nazariya Sharq va Yevropa tabobat an'analarini tomonidan birdek qabul qilingan, ishlab chiqilgan va rivojlantirilgan bo'lsada, uning rivojlanishidagi lingvistik va madaniy kontekstlar biri-birdan farq qiluvchi talqin va amaliyotlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Ushbu maqolada gumoral nazariyaning Sharq va Yevropa xalq tabobatida qanday kontseptuallashtirilgani, ifodalanganligi va qo'llanilganligi ko'rib chiqiladi, hamda bu ikki an'anada uning evolyutsiyasini shakllantirgan lingvistik nuanslar va madaniy ta'sirlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: Gumoral nazariya, qon, balg'am, safro, savdo, qiyosiy tahlil, Yevropa tibbiyoti, Sharq tabobati, madaniy e'tiqod, tana suyuqligi, mijoz, temperament, sinkretizm

Qadimgi yunon tibbiyotida ildiz otgan gumoral nazariya, O'rta Sharq va Yevropa xalq tabobatida minglab yillar davomida fundamental nazariya bo'lib

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

| | | |
|------------|--|------------|
| 16. | APPLICATIONS OF THE SEMANTIC- PRAGMATIC DISTINCTION Tuhtaeva Shahzoda Oktamovna | 64 |
| 17. | SOTSIOLINGVISTIKANING METODOLIK JIHATLARI Baxridinova Mutabarxon Adaxamovna | 66 |
| 18. | ANALYSIS OF THE PROBLEMS OF MODERN LINGUISTICS Ashirova Mashxura Bakjon qizi Sh.D.Razakova | 68 |
| 19. | CONTEMPORARY ISSUES OF SOCIOLINGUISTICS Afra Khanam Adakhamova Malokhatkhon Nuriddin kizi | 70 |
| 20. | DUNYO KONSEPTUAL MANZARASIDA VOQELIKNI AKS ETISHI Nasirova Muxayyo Kimsanovna | 72 |
| 21. | YEVROPA VA ISLOM DUNYOSI XALQ TABOBATIDA GUMORAL NAZARIYA,UNDAGI ATAMALAR VA ULARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI No'monov Muhiddin | 75 |
| 22. | PSIXOLINGVISTIKANING O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDAGI TADQIQI M.Mamajonov | 78 |
| 23. | ZAMONAVIY YO'NALISHLAR HAMDA ULARNING RIVOJLANISH ASOSLARI Ro'zimurodova E'zoza Qulmamat qizi Sh.D.Razakova | 81 |
| 24. | Suggestiv lingvistikaga xos tushunchalar haqida Yusupova Shahzoda Tohirjon qizi | 83 |
| 25. | TURKIY TILLAR ANTROPONIMIYASINING O'RGANILISHI Obobakirova Valizaoy Mamarasulova Feruza | 87 |
| 26. | Zamonaviy tilshunoslikda til va madaniyat, nutqiy akt va pragmatik ma'nno munosabatlari xususidagi konsepsiylar Uliqova Mavluda Sotvoldiyevna | 89 |
| 27. | Lingvomadaniy kontseptsiyani tahlil qilish usullari Boltayeva Nargiza Raxmatovna | 93 |
| 28. | YANGI SO'ZLARNING YARATILISHI VA SHAKLLANISHIDA KOGNITIV JARAYONLARNING O'RNI To'rayeva Maftuna Akbar qizi | 97 |
| 29. | РОЛЬ И МЕСТО КОГНИТИВНО-КОНЦЕПТУАЛЬНОГО ПОДХОДА КАК ОСНОВЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ М.Г.Хошимов | 101 |
| 30. | DIALOGIK NUTQ VA MANIPULYATIV KOMMUNIKATSIYADA GENDERNING AHAMIYATI Tulanbayeva Shahnozahon Shavkatbekovna | 104 |
| 31. | MODERN PROBLEMS OF SOCIOLINGUISTICS Murodova Jasminaxon Oybek qizi, Islomova Z | 110 |
| 32. | Actual problems of general linguistics Tashkulova Feruza Islomova Zarina | 113 |